

The Role Of The Internet In Foreign Language Learning

**Muminova Feruza Payzerakhmanovna,
Nizamova Khilola Shavkatovna**

Tashkent State University Of Oriental Studies Academic Lyceum English Language Teachers

Annotation: This article explains the important role of the Internet in education and the significant aspects of its unlimited possibilities for the field of education. As we all know, in order to prepare the young generation that is currently growing up to perfectly learn foreign languages, to be able to communicate freely in the foreign language they are learning, there is a need to immerse themselves in the cultures of the peoples of the world through the study of foreign languages. These tasks are one of the main goals and objectives of the educational reform being implemented in our country.

Keywords: Internet, globalization, websites, virtual education, quality and effectiveness of education, online information technologies and their advantages, online webinars and courses, ICT.

Xorijiy Tilni O'rganishda Internetning O'Rni

**Muminova Feruza Payzeraxmanovna,
Nizamova Xilola Shavkatovna**

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Universiteti Akademik Litseyi Ingliz Tili Fani O'qituvchilari

Annotatsiya: Ushbu maqolada internetning ta'limdagi muhim roli va uning cheksiz imkoniyatlarining ta'lim sohasi uchun ahamiyatli tomonlari izohlab o'tilgan va hammamizga ma'lum bo'lganidek, hozirgi kunda o'sib kelayotgan yosh avlodni chet tillarini mukammal o'rganishga, o'zlari o'rganayotgan xorijiy tilida erkin muloqot qila olishga qodir mutaxassislar tayyorlash maqsadida, chet tillarini o'rganish orqali dunyo xalqlari madaniyatiga kirib borish zaruriyati paydo bo'lmoqda. Bu vazifalar yurtimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotining asosiy maqsad va vazifalaridan biridir.

Kalit so'zlar: Internet, globallashuv, veb-saytlar, virtual ta'lim, ta'lim sifati va samaradorligi, onlayn axborot texnologiyalari va ularning afzalliklari, onlayn webinar va kurslar, AKT.

Hozirgi tezkor rivojlanayotgan davrda ko'pchilik odamlar ikki yoki undan ortiq tillarda erkin muloqot qila oladi. Tillarni o'rganish jarayonida ayrim tillar nisbatan oson o'zlashtirilsa, boshqalari esa biroz murakkabroq bo'lib, ularni o'rganish uchun ma'lum vaqt va kuch sarflashni talab qiladi. Menimcha, qizg'inlik va qiziqish bilan harakat qilsak, har qanday tilni o'rganish mumkin. Hozirgi vaqtda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida, yosh avlod

maktabgacha ta'limdan tortib oliy ta'limgacha o'z ona tili bilan chet tilini bir vaqtda solishtirib o'rganish imkoniga ega bo'lmoqda. Aynan tilshunoslikda ushbu metod o'quvchilarning bilimlarni tezroq o'zlashtirishiga yordam berishda eng samarali va foydali usullardan biri sifatida qaraladi. Chunki, agar til o'rganayotgan o'quvchi o'z ona tilini chuqur bilsa, bu uning o'rganish jarayonida katta foyda keltiradi. Ona tilini xorijiy til bilan bir vaqtda taqqoslab o'rganish esa yillar davomida sinovdan o'tgan va tasdiqlangan samarali metod hisoblanadi.

Hozirgi zamonaviy texnologiyalar yordamida xorijiy tillarni o'rganish samarali va qulay usullardan biri sifatida e'tirof etilishi muhimdir. Ushbu usul, barcha yoshdagi insonlar uchun til o'rganish jarayonida keng qo'llanilmoqda.

Intemet zamonaviy davrning eng foydali texnologiyasidir. Bugungi globallashuv zamonamizda hayotimizni internetsiz tasavvur qilish mushkul. U bizga nafaqat kundalik hayotimizda, balki kasbiy jarayonda ham yordam beradi. Ta'lim tizimida ham uning o'rnini - beqiyos. Ma'lumotlarni to'plash, tadqiq qilish yoki turli mavzularda bilimni oshirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, intemet dunyoda har bir kishining afzal ko'rgan ham nazariy ham amaliy quroli, ya'ni, kuchli vositasiga aylanib kelmoqda. Har bir odamning biror maqsad uchun internetga ehtiyoji bor, shu jumladan, kimlardir internet deganda vaqt o'tkazish va zerikmaslik uchun xizmat qiladigan ijtimoiy tarmoqlar hamda ilovalarni tasavvuriga keltirsa, ayni paytda bu termin va uning funksiyasi bir qator ilmiy sohalarda, ayniqsa ta'lim borasida sezilarli ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Masalan, o'quvchilar va o'qituvchilar ma'lum bir fan va soha doirasida darsliklar, ma'lumotlar va boshqa veb xizmatlar qidirish uchun internetga muhtoj. Ularning kasbiy jarayonlarida muvaffaqiyatga erishishlari uchun bu imkoniyatlar birlamchi va eng oson vosita bo'lib xizmat qiladi. Ma'lumki yaqin o'tgan zamonda insonlar madaniy hordiq olish yoxud ilmiy izlanishlar olib borish uchun ko'plab kitoblarni sotib olishga yoki kutubxonalarda soatlab qolib ketishlariga majbur bo'lishgan. Ammo hozirgi jadal rivojlanib borayotgan zamonimizda bunday muammolarga o'rin yo'q chunki onlayn platformalarda va virtual kutubxonalarda dunyoning yuzlab balki millionlab kitoblarning pdf versiyasini ham bepul ham oson topib istagan vaqtimizda o'qish imkoniyatiga egamiz.

Yurtimizda ta'lim sohasini xorijiy tillar bilan boyitish maqsadida ishlab chiqilayotgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari bunday yondashuvning amaliy dalilidir. Binobarin o'z ona tilisiga qiziqqan va uni puxta o'rgangan o'quvchigina boshqa tillarga mehr qo'yib uni o'rgana oladi. Shuningdek yurtimizda til o'rganishga bo'lgan e'tibor nuqtai nazaridan ham oladigan bo'lsak aynan yaqin 5-10 yil ichida misli ko'rinmagan ishlar amalga oshirildi va buni siyosat darajasigacha olib chiqishdi va o'z o'rnida xorijiy tillarni o'rganishga oid bir qator qaror va farmonlar ishlab chiqildi xususan prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida chet tillarini o'rganish tizimini takomillashtirishga bag'ishlangan videoselekt bo'lib o'tan edi 2021-yildan chet tili o'qituvchilariga milliy va xalqaro sertifikatga ega bo'lish talabi kiritilishi haqida ta'kidlangan edi.

Internetning ta'limdagi ahamiyati, aynan talabalar uchun, ma'lumotlarni tadqiq etish yoki oldin o'rgangan bilimlarini mustahkamlashni osonlashtirishdir. Ta'lim sohasida internetning qulayliklari juda ko'p, ammo quyida eng muhim nuqtalarini muhokama qilib o'taman:

Bilamizki, ta'limdagi eng katta to'siq bu - uning qimmatliligi. Ammo ko'plab insonlar Internet orqali qulay va arzon narxlarda sifatli ta'lim olishlari mumkin. Ayniqsa xalqaro sertifikatlar olishga tayyorlov yoki xorijiy tillarni o'rganishda onlayn

vebinar hamda darslar juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa davlatning mustaqil rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi shu bilan birga aholining ish bilan ta'minlanish darajasini ko'taradi. Bunga hozirda turli xil tillarni o'rganish uchun xizmat qilayotgan IBRAT farzandlari yoki akademiyasi ilovasi yaqqol namuna bo'la oladi.

Intemet ma'lumotlar buyrug' bo'lib, CBSE maktablarga ko'plab ta'limiy resurslar taqdim etadi. Onlayn darsliklar va elektron ta'lim platformalari, ta'limiy videolar va interaktiv testlar, o'qish tajribasini kuchaytiradigan ko'p usullar taklif etadi. Qo'shimcha ravishda, talabalar hamkorlik loyihalarida ishtirok etish, onlayn muzokaralarda qatnashish, vebinarlar yoki virtual konferensiyalarga qatnashish imkoniyatiga ega bo'lishlari mumkin va albatta, bularning hammasi faol o'qish va kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Quyida qo'shimcha tariqasida internetning ta'limda eng ahamiyatli jihatlarini keltirib o'tishimiz mumkin:

Onlayn ta'lim platformalari: Internet ta'limiy platformalar va kurslarga kirish imkonini beradi, ular esa klassik sinflarda o'qitishni qo'llab-quvvatlaydilar.

Tadqiqot va ma'lumot: Talabalar intemetda tadqiqot qilish, akademik jumallarga kirish, va loyihalar hamda vazifalar uchun ma'lumot to'plash maqsadida foydalanishlari mumkin.

Hamkorlik loyihalari: Onlayn vositalar va platformalar talabalarga loyihalarda va vazifalarda hamkorlik qilish imkonini beradi, hattoki ular jismoniy ravishda mavjud bo'lmasa ham.

Ta'limiy videolar: YouTube kabi platformalar va ta'limiy saytlar vizual yordam orqali talabalarga murakkab mavzularni tushuntiradigan video kontent taklif etadi.

Virtual laboratoriyalar: Onlayn simulatsiyalar va virtual laboratoriyalar talabalarga ilmiy tushunchalarni xavfsiz, raqamli muhitda tadqiq etish imkonini beradi.

Jahon bilan bog'lanish: Internet dunyo bo'ylab talabalar bilan bog'lanishni tashkil etadi, madaniy munosabatlar va murakkab ko'nikmalar uchun imkon yaratadi.

Ushbu maqolada xulosa qilinadiki, axborot texnologiyalari taraqqiy etgan davrda yashayotgan ekanmiz, ushbu qulayliklardan oqilona foydalangan holda chet tillarini barcha uchun tushunarli tarzda yanada mukammal o'rgatish lozim. Demak texnologiyalarni joriy qilish, o'qitish uslublarini davr talablariga javob berishini ta'minlash pedagog-olimlarning kechiktirib bo'lmas asosiy vazifalaridir. Mutaxassislar tayyorlash, ularning malakasini oshirish ham dolzarb hisoblanadi. Davlatimizning jahon mamlakatlari bilan olib borayotgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy aloqalari kuchayib borayotgan bir paytda yoshlarimizning xorijiy mamlakatlar hayoti, madaniyati, urf-odatlarini, tiliga bo'lgan qiziqishlari ortib bormoqda. Bu aloqalarning rivojida chet tillarining o'rni beqiyosdir.

Foydalanilgan adabiyotlar (references)

1. Odiljonovna, T. M. (2023). Xorijiy tillarni o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning o'rni va ahamiyati. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 1(5), 112-113.
2. J. Jalolov "Chet tili o'qitish metodikasi"
3. 2012-yil 10-dekabrda "Chet tillarini o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidentining №=1875-qarori

4. Rahma Al-Mahrooqi and Salah Troudi “Using technology in foreign language teaching”
5. Xolto'rayeva H. “Chet tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning umumiy samaradorligini oshirish yo'llari”. 2023